



EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI HIMOYALASH

Turdimuratova Saxizoda Jangabaevna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Nukus shahri 1-son politexnikumi,

Aniq fanlar kafedrası

Fizika fani katta o‘qituvchisi.

Turdimuratova Saxizoda Jangabaevna


*Biologiya fani katta o‘qituvchisi- **Bekniyazova Indira Baltaniyazovna***

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyati, zamonaviy ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanish tamoyillari asosida inson faoliyatining tabiiy muhitga ta‘siri, ekologik muammolarni hal qilishda davlat va jamiyatning ro‘li yoritiladi. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik innovatsiyalar va yashil iqtisodiyotning rivojlanishi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik muammolar, yashil iqtisodiyot, tabiiy resurslar, iqlim o‘zgarishi.

Tabiat va inson o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy ekologik muammolarni hal qilish zarurligini ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishi, havoning ifloslanishi, chiqindilarni noto‘g‘ri boshqarish kabi muammolar global miqyosda dolzarb bo‘lib, ularning yechimi barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu maqolada ekologik muammolar va ularni hal qilish yo‘llari tahlil qilinadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish - inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini cheklash va uning buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Bunday choralar quyidagilar bo‘lishi mumkin:



1-rasm.

Shuni ham aytish joizki, ekologiyani va atrof-muhitni himoyallash usullaridan biri bu- korxonalardan chiqayotgan chiqindilarni qayta ishlab chiqarish. Bu orqali iqtisodiyotga va ekologiyaga foyda keltirish mumkin.

Hozirgi kunda turli xil texnologiyalar orqali bu jarayonni qo'llab quvvatlab kelinmoqda.

Shuningdek, chiqindi inson uchun zarur bo'lgan mahsulotning foydalanilmay qolib, o'zining xususiyatlarini yo'qotgan qismi tushuniladi. Chiqindilar sanoat ishlab chiqarishida, energetikada, kundalik turmushda, qisqasi inson hayot faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jabhalarda paydo bo'ladi. Ular atrof-muhitni ifloslashi bilan ekotizimlarni buzadi, ayrim hollarda esa inson hayotini xavf ostiga qo'yadi.

Qattiq chiqindilarni qayta ishlashning 20 xil usuli mavjud bo'lib, ular asosan chiqindi turiga ko'ra tanlanadi:

- chiqindilarni poligonlarda ko'mish – bu usul eng qadimgi va hozir ham dunyo sathida ko'p qo'llanilib kelayotgan an'anaviy usul hisoblanadi.
- termik parchalash usuli – tarkibida toksik birikmalar saqlanmagan chiqindilar uchun qo'llaniladigan usul bo'lib, bu usul bilan ular juda qisqa vaqt orasida batamom zararsizlantiriladi. Termik usulda axlat maxsus zavodlarda yondirilib, undan issiqlik energiyasi ham olinadi. Bunda axlat to'liq yonishi uchun unga qo'shimcha havo oqimi beriladi, natijada axlat yonishidan harorat +13000C gacha ko'tariladi. Olingan issiqlik energiyasidan aholi punktidagi binolarni isitish va



aholini issiq suv bilan ta'minlashda foydalaniladi. termik parchalash usuli – tarkibida toksik birikmalar saqlanmagan chiqindilar uchun qo'llaniladigan usul bo'lib, bu usul bilan ular juda qisqa vaqt orasida batamom zararsizlantiriladi. Termik usulda axlat maxsus zavodlarda yondirilib, undan issiqlik energiyasi ham olinadi. Bunda axlat to'liq yonishi uchun unga qo'shimcha havo oqimi beriladi, natijada axlat yonishidan harorat +13000C gacha ko'tariladi. Olingan issiqlik energiyasidan aholi punktidagi binolarni isitish va aholini issiq suv bilan ta'minlashda foydalaniladi.

- kompostlash usuli-chiqindilarni zararsizlantirib, ulardan organik o'g'it olish imkonini beradi. Usul mezofil va termofil aerob bakteriyalarning faoliyatiga asoslangan bo'lib, organik chiqindilarga nisbatan qo'llaniladi.

- Plazma usuli. Chiqindilarni qayta ishlashning plazma usuli eng yangi texnologiya bo'lib, uni barcha turdagi chiqindilarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Mazkur usul „Kurchatov nomidagi atom texnologiyasi” institutida Rossiya, Isroil va Ukraina mutaxassislarining hamkorligida yaratildi va 2010 yil shu usul bilan chiqindilarni utilizatsiya qiladigan zavod Isroilning Karmiel shaharchasi yaqinida qurib ishga tushirildi. Bu usul bilan qayta ishlaganda nafaqat chiqindilar zararsizlantiriladi, balki ulardan ikkilamchi qimmatbaho mahsulotlar va energiya ham olinadi. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning plazma usuli eng ilg'or, 100% ekologik toza usul hisoblanadi. Plazma usulining afzalliklari qatoriga uning chiqindisiz texnologiya asosida ekologik tozaligi, iqtisodiy samaradorligi, chiqindini qayta ishlashga tayyorlashning talab qilinmasligi, energiya tejamkorligi, ish quvvatining yuqoriligi kabilarni kiritish mumkin.¹

Xulosa qilib aytganda, Ekologik muammolarni hal qilish uchun har bir fuqaroning mas'uliyati, davlat siyosati va global hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda yashil iqtisodiyotga o'tish, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kelajak avlodlar uchun ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

¹ Yo'ldasheva M., Ohunova G. Sanoat chiqindilari asosida qurilish materiallari olish //science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. а6. – с. 536-538.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yoldasheva M. et al. Obtaining building materials based on industrial waste //science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. 6. – с. 536-538.
2. Muhayyo Y. Secondary Resources Use as Raw Materials of Construction Materials //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 240-241.
3. Yo‘Ldasheva M., Ohunova G. Sanoat chiqindilari asosida qurilish materiallari olish //science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. a6. – с. 536-538.